

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnalni bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'Ichiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



УО'К: 94(5)"14":355.48

AMIR TEMURGA ASIR TUSHGAN NEMIS RITSARI**НЕМЕЦКИЙ РЫЦАРЬ, ПОПАВШИЙ В ПЛЕН К АМИРУ ТЕМУРУ****A GERMAN KNIGHT CAPTURED BY AMIR TIMUR****Nizomiddinov Doniyorjon Jaloldin o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temurga asir tushib Temuriylarga xizmat qilgan nemis ritasari Hanns Shiltberger haqida va uning yozib qoldirgan esdaliklari haqida bayon qilinadi. Maqolada Hanns Shiltbergerning esdaliklari qanday darajada haqiqatga yaqinligi, uni o'rganiganlik darajasi, Temuriylar saroyida yurgan davrda sodir bo'lgan jarayonlar haqida yozgan ma'lumotlari tahil qilinadi. Hans Shiltbergerning qanday qilib Amir Temurga asir tushub qolganligi haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Аннотация

В этой статье рассматривается немецкий рыцарь Ханс Шильтбергер, который был захвачен Амиром Темуром и позже служил Тимуридам, а также его записи. В статье анализируется, насколько его воспоминания близки к истине, степень их изученности и информация, которую он записал о событиях, происходивших в период его пребывания при дворе Тимуридов. Также приведены данные о том, как Ханс Шильтбергер оказался в плену у Амира Темура.

Abstract

This article discusses the German knight Hanns Shiltberger, who was captured by Amir Timur and later served the Timurids, as well as the memoirs he recorded. The article analyzes how close his memoirs are to the truth, the extent of their study, and the information he wrote about the events that took place during his time at the Timurids' court. It also provides details on how Hanns Shiltberger came to be captured by Amir Timur.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Hanns Shiltberger, Sgizmund, Anqara jangi, Albrekt III taqvodor Valentin Langmantel, Xitoy elchisi

Ключевые слова: Амир Темур, Ханс Шильтбергер, Сигизмунд, битва при Анкаре, Альбрехт III благочестивый, Валентин Лангмантель, китайский посол.

Key words: Amir Timur, Hanns Shiltberger, Sigismund, Battle of Ankara, Albrecht III the Pious, Valentin Langmantel, Chinese ambassador.

KIRISH

Amir Temur dunyo tarixida o'zining harbiy qolbiliyatini, davlatchilik faoliyati yo'lidagi ulkan ishlarni o'z zamondosh tarixchilari tomonidan e'tirof etilib kelingan. Amir Temur Xaqida ma'lumot beruvchi ko'plab Yevropa manbalari orasida germaniyalik ritsar Hans Shiltbergerning "Sayohatnomasi" ("Reisebuch") ham tarixshunoslar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Hans Shiltberger kim u Amir Temur va temuriylar haqida qanday ma'lumot bergen degan savol tug'iladi albatta.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hans Shiltberger merosini ko'plab tarixshunoslar o'rganib tahlil qilishgan. Xususan, asar XV asrdayoq bir necha nusxada nashr etilgan, XIX asrda nemis tarixshunosi Abraham Yakob Panzel, Karl Fridrix Neuman, Valeriy Langmantel, ingliz va rus tarishunoslari organigan.

NATIJA VA MUHOKMA

XIV asr oxirida Usmonli turklar sultanati Yevropaga xavf sola boshlaydi. Lyuksenburgalar sulolasi vakili Vengriya qiroli Sgizmund 1394-yilda Yevropaliklarni Usmonli turklarga qarshi muqaddas yurushga chorlaydi. Buning natijasida Yevropaliklar Sgizmund qo'll ostida birlash boshlaydi. Bu chorlovlardan Muyunxenliklar ham chetda qolmaydi. Hans Shiltberger ham bunnday chorlovni mammuniyat bilan qabul qiladi. Hanns Shiltberger 1381-yilda Bavariyaning Myunxen va Frayzing shahri oralig'idagi hududda ancha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan ritsarlar oilasida dunyoga kelgan. Yevropada mayorat tizimi mavjud bo'lgan bir sharoitda tarixchilarining ta'kidlashicha

TARIX

orada ikkinchi yoki uchunchi farzand bo'lgan Hanns Shiltberger bu Usmonli turklar imperiyasiga qarshi kurashga o'z oilaviy ritsarlik unvonini qayta tiklash, moliyaviy ahvolini butlash uchun, va nihoyat muqaddas yurushda ishtirok etish uchun myunxenlik ritsar Leonhart Rexartingerga xizmatchi bo'lib ollanadi va u bilan birgalikda Sgizmund qo'shini tarkibiga qo'shiladi. Hanns Shiltberger shunday deydi: "Men. Hanns Shiltberger o'z yurtim Myunxen deb ataladigan shahardan chiqdim. Bu shahar Bavariyada joylashgan Bu voqeal Iso alayhissalomning tug'ulganiga 1394-yil bo'lganda sodir bo'ldi. Keyin men Vengriy qiroli Sgizmunga kelib qo'shildim." [1]

1396-yilda yevropaliklar va usmonlik turklar o'tasida Bolgariyaning Nikopol shahri yaqinida jang bo'lib o'tadi. Bu jangda Sgizmund boshchilikidagi qo'shin Boyazid Yildirimdan mag'lubiyatga uchraydi. Bu jangdan so'ng Hanns Shiltberger turklarga asir tushadi. U 1396-yildan 1402-yilgacha Usmonli turklarga xizmatchi bo'lib yuradi. [2]

1402-yil jahoning ikki yirik sarkardasi Amir Temur va Boyazid Yildirim o'tasida Anqara yaqinida jang bo'lib o'tadi. Ushbu jangda nemis ritsari Hanns Shiltberger ham bo'lgan va ushbu jangda temuriylarga asir tushub Smaraqandga olib kelinadi. U yerda 1405-yilgacha Amir Temur saroyida xizmat qiladi. Amir Temur vafot etgandan so'n Shohruh Mirzoning oldiga borib uning xizmatchisiga aylanado. Shohruh Mirzo Hanns Shiltbergerni akasi Mironshoh Mirzoga in'om qilib yuboradi. 1408-yil Mironshoh Mirzo qora qo'yli turkmanlar bilan bo'lgan jangda vafot etgandan so'ng Mironshohning ikkinchi o'g'li Abu Bakr Mirzo yonida yuradi. Hanns Shiltberger to 1412-yilgacha Temuriylar xizmatida yuradi. U Bu haqida shunday deydi: "Mironshox qo'lga olinib qatl etilgandan so'ng men uning o'g'li Abu Bakir xizmatida to'rt yil bo'ldim".

Hans Shiltberger 1427-yilda o'z ona yurti Myunxenga qaytib boradi. Bavariya gersogi Albrekt III taqvodor saroyida faoliyat yuritadi. U o'z eslatmalarini yozishda Albrekt III saroyidagi ilmi kishilar yordamida amalga oshiradi. [3]

Hanns Shiltbergerning "Sayohatnomas"ining o'nga yaqin qo'lyozma nusxalari bugungi kungacha yetib kelgan. Ularning aksariyati to'liq emas va ayrimlari parchalardangina iborat. Sayohatnomining deyarli to'liq nusxalari Myunxenda joylashgan Bavariya davlat kutubxonasida, Karlsruhe shahridagi Baden davlat kutubxonasida, Strasburg milliy va universitet kutubxonasida, Geydelberg universiteti kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.

Shiltbergerning sayohatnomasi ilk bor 1475-yilda Germaniyaning Mans shahrida, shundan so'ng 1477-yilda Augsburgda nashr etilgan. U shunchaki oddiy tilda va badiiy bo'limgan tarzda nashr etilgan. Lekin asarda ko'plab uydurma ertaklar va mo'jizaviy hikolar bilan qorishtirilgan.

Ko'plab tarixchilar Hanns Shiltbergerning "Sayohatnomasi"ni mubolag'alarga boy, ortiqch bo'rtirishlar va uydurma hikoyalardan tarkib topgan umumiy yozilgan asar sifatida ta'iflaydilar.

XV – XVIII asrlar tarixshunoslari Hanns Shiltbergerning eslatmalaridan o'z asarlarini yozishda foydalanganlar. Masalan, XVI asr Germaniya imeriysi qiroli harbiy sarkardalaridan biri, tarixchisi Leonhart Fronsberger o'zining "Urush kitobi" (Kriegsbuch) Kitobida 1402-yil bo'lib o'tgan jangni Shiltberger eslatmalaridan olganligini ta'kidlab o'tadi [4]

Shiltberger eslatmalarini ilmiy-tanqidiy tadqiq etib o'rganish asosan XIX asrda boshlangan. 1813-yilda nemis tarixchisi va filologi Abraham Yakob Panzel tomonidan "Shiltbergerning turklar tomonidan 1395-yil Nikopol jangida qo'lga olinishi, xudosizlikka olib borilishi va 1427-yilda vatanga qaytishi. Shrqa sayohat va ajoyib voqealar" nomi ostida nashr etilgan. Lekin Abraham Yakob Panzel tomonidan nashr etilgan asr to'liq emas. Biroz joy nomlari va yillar xususida ayrim chalkashliklar mavjud bo'lgan. 1824-yilda asarni birinchi ruscha tarjimasi D.D.Yazikov tomonidan amalga oshirildi. 1859-yilda Karl Friedrix Neuman tomonidan qayta tahlillar asosida nashr etildi. Neuman Hanns Shiltberger eslatmalarini bir necha nusxalarini tahlil qilib nashr etganligi bilan ajralib turadi. Ammo 1885-yilda Valentin Langmantel tomonidan Nyurenber qo'lyozmasi asosida tarixiy manbalarga tayngan holda ilmiy tahlil qilinib Tyubingenda "Hanns Shiltbergerning sayohatnomasi" nomi ostida nashr etiladi. [5]

Asarni Amir Temur va temuriylar haqidagi ma'lumotlari ham qimmatlidir. Aynan o'zaro ichki kurashlar natijasida tashqi dunyodan uzulib qolgan nemis tarixshunoslari XV – XVI asrlarda Amir Temur shaxsi va uning davlati haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar.

Xususan asarda Amir Temurning Sivasni bosib olishi, Misir hukumdori bilan o'zaro munosabati, Anqara jangi, Bag'dodni bosib olinishi, Xitoya yurush hamda Shohruh Mirso, Mironshoh hamda Abu Bakir Mirzolar haqida ma'lumotlar beriladi. Amir Temurning Xitoya yurushi haqida "Va o'sha paytda, Timurlan safarga chiqqanida, Xitoydag'i buyuk podshoh Timurlanga bir

elchi yuborib, unga 400 ot va o'zining oldindan kelishilgan foizlarini to'lashni taklif qildi. Agar u ilgari foizni to'lamagan bo'lsa, 5 yil davomida undan foiz talab qilgan. Bu elchini Timurlan uzoq vaqt o'z huzurida ushlab turadi. Keyin, o'z poytaxtiga qaytgach, Timurlan elchini o'z hukumdori oldiga yuborib, unga shunday xabar berdi: Timurlan unga foiz to'lashni va unga bo'y sunishni xohlamaydi, lekin umid qiladiki, u o'zi foiz to'lab, bo'y sunishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, elchi Timurlandan ajraldi. Keyin, Timurlan o'z yuritgan yerlarida tayyorgarlikni boshladi, chunki u Xitoya qarshi yurish qilishni xohlagan. U 1 mln 800 ming askar to'plab, ularni o'ziga qo'shib, Xitoya yurish boshladi. Bir oylik safardan so'ng, u katta bir cho'ldan o'tdi, bu cho'l 70 kun davom etdi. U 10 kun davomida cho'lda sayohat qilgan va bu vaqt ichida katta miqdorda suv yetishmasligi sababli askarlari va hayvonlari juda katta zarar ko'rdi, ayniqsa otlar sovuqdan aziyat chekdi. U katta yo'qotishlarga duch kelganini ko'rganidan so'ng, Timurlan qaytishga qaror qildi va poytaxtiga qaytdi. Shu payt u kasal bo'lib qoldi". [6]

XULOSA

Hans Shiltberger esdaliklari ayrim noaniqliklar va mubolag'alardan iborat bo'lishiga qaramay o'zining tarixiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunonchi, u o'zining esdaliklarida Amir Temur va uning hukmronligi, shuningdek, Temuriylar davrining ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Uning yozganlari tarixchilarga o'sha davr haqida muhim tushunchalar berib, Amir Temurning hayoti va shaxsiyatini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Shiltberger Amir Temur va Temuriylar saroyida o'z ko'zlari bilan ko'rgan va boshidan kechirgan voqealar haqida yozgan. Uning esdaliklari tarixiy manba sifatida bevosita va shaxsiy guvohlikni taqdim etadi. Hans Shitbergerning esdaliklari nafaqat Amir Temur va temuriylar davalti balki boshqa hududlarning ham XIV asr oxiri XV asr birinchi yarmi haqida ma'lumot beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Valentin Langmantel. Hans Schiltbergers Reisebuch. Nach der Nürenberg handschrift. Tübingen. 1885
2. Karl Friedrich Neuman. Reisen des Johannes Schiltberger aus München in Europa, Asia und Afrika von 1394 bis 1427. München. 1859
3. Leonhart Fronsberger. Kriegsbuch. Frankfurt am Main. 1596
4. Karl Friedrich Neuman. Reisen des Johannes Schiltberger aus München in Europa, Asia und Afrika von 1394 bis 1427. München. 1859
5. Valentin Langmantel. Hans Schiltbergers Reisebuch. Nach der Nürenberg handschrift. Tübingen. 1885
6. Valentin Langmantel. Hans Schiltbergers Reisebuch. Nach der Nürenberg handschrift. Tübingen. 1885